

**RIVOJLANAYOTGAN ZAMONAVIY FUTBOLNING  
YOSHLAR ORASIDA AHAMIYATI**

**Ashurova Gulnoza Ro'zmat qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Andijon davlat texnika instituti sport klubi to'garak rahbari

**Ashurova Shaxlo Azamovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent viloyati Bekobod shahar politexnikumi  
jismoniy tarbiya o'qtuvchisi

**Yo'ldosheva Nodira Axyor qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent viloyati futbol maktabi murabbiyi

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 03.06.2025

Revised: 04.06.2025

Accepted: 05.06.2025

**KALIT SO'ZLAR:**

futbol, yoshlari,  
sog'lom turmush tarzi,  
sport, jamoa, intizom,  
tarbiya, ijtimoiy  
ko'nikmalar,  
professional rivojlanish,  
sport infratuzilmasi.

Ushbu maqolada zamonaviy futbolning yoshlari  
hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Futbolning  
sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy  
ko'nikmalarni rivojlanirish, intizom va  
mehnatsevarlikni o'rgatishdagi roli tahlil qilingan.  
Shuningdek, sport orqali yoshlarning kelajagiga  
professional imkoniyatlar yaratish masalalariga  
ham e'tibor qaratilgan. Maqola futbolning yoshlari  
tarbiyasidagi ijobiy ta'sirini ochib beradi va sportni  
ommallashtirish zarurligini asoslaydi.

**KIRISH.** Bugungi kunda futbol nafaqat ommabop sport turi, balki yoshlari tarbiyasida,  
ularning sog'lom hayot tarzini shakllantirishda va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim  
vosita bo'lib bormoqda. Zamonaviy futbol jahon bo'ylab yildan-yilga rivojlanib, yangi  
texnologiyalar, murabbiylilik yondashuvlari va tibbiy nazorat asosida yuksak darajaga  
chiqmoqda. Aynan shunday taraqqiyot yoshlari uchun futbolning ahmiyatini yanada  
oshirmoqda. Futbol jismoniy faollikni rag'batlantiradigan eng samarali sport turlaridan

biridir. Doimiy mashg'ulotlar orqali yoshlar sog'lom, baquvvat va chidamli bo'lib voyaga yetadilar. Bundan tashqari, futbol yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, mushaklarni rivojlantiradi va immunitetni kuchaytiradi. Bugungi kunda yoshlar orasida telefonga qaramlik va harakatsiz hayot tarzining ko'paygani sababli futbol ularni faol hayotga qaytarishda muhim rol o'yamoqda. Zamonaviy futbol yoshlarni jamoa bilan ishlash, o'zaro hurmat, birdamlik va mas'uliyat kabi fazilatlarga o'rgatadi. Jamoaviy sport turi bo'lganligi sababli, futbolchilar o'z fikrini to'g'ri ifodalash, murosaga kelish va boshqalarni eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa yoshlarning kelgusida jamiyatga moslashuvi va muvaffaqiyatlari shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Murabbiy nazoratida olib boriladigan futbol mashg'ulotlari orqali yoshlar tartib-intizomga, vaqt ni to'g'ri taqsimlashga va mehnatsevarlikka o'rghanadilar. Sportdagi muvaffaqiyat uzoq muddatli mehnat, qat'iyat va sabr bilan bog'liq. Shu bois, futbol o'ynayotgan yoshlar hayotda ham bardavom bo'lishga, qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rghanadilar. Zamonaviy futbol yoshlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Futbol akademiyalari, professional klublar va xalqaro turnirlar orqali iqtidorli yoshlar o'zini ko'rsatib, katta sahnalarga chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa nafaqat ularning kelajagini ta'minlaydi, balki butun jamiyat uchun ijobjiy o'zgarishlarni olib keladi. Rivojlanayotgan zamonaviy futbol yoshlar hayotida katta ahamiyatga ega. U nafaqat sog'lom avlodni shakllantirish, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlash, ijtimoiy faollikni oshirish va kelajak avlodga yo'll ko'rsatishda beqiyos vositadir. Shu bois, maktab va mahalla darajasida futbolga bo'lgan e'tiborni yanada oshirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Futbol nafaqat jismoniy faollikni ta'minlash vositasi, balki yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy va ma'naviy omil sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu bois, futbolning yoshlar orasida ommalashuvi va rivojlanishi ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, intizom va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishda katta rol o'yaydi.

O'zbekiston sharoitida ham futbol sohasida sezilarli o'zgarishlar va rivojlanishlar kuzatilmoqda. Mamlakatimizda yosh futbolchilarga yuqori sifatli ta'lim va treninglar berish, ularni professional darajaga yetkazish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu esa nafaqat sport sohasidagi muvaffaqiyatlarga, balki yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ham xizmat qilmoqda.

Shu bois, zamonaviy futbolning yoshlar hayotidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rGANISH, uning tarbiyaviy va ijtimoiy rolini aniqlash dolzarb masalaga aylangan. Ushbu maqolada futbolning yoshlar salomatligini mustahkamlash, ularni jamoaviy ishga o'rgatish,

shuningdek, yoshlarning kelajagiga professional imkoniyatlar yaratishdagi roli tahlil qilinadi. Bundan tashqari, futbolni ommalashtirish va yoshlarni orasida sport madaniyatini shakllantirish yo‘lidagi muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlarni orasida sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Raqamli qurilmalarga qaramlik, jismoniy faollikning kamayishi va psixologik muammolarning ko‘payishi yoshlarni salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazaridan, futbol kabi jamoaviy sport turlarining yoshlarni hayotiga integratsiyalashuvi dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy futbol nafaqat sport sifatida, balki yoshlarni tarbiyasi, ijtimoiylashuvi, mehnatsevarlik va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqola orqali yosh avlodni sog‘lom va faol hayot tarziga yo‘naltirishda futbolning ijtimoiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan qanday foyda berishi tahlil qilinadi. Shu bois, mazkur mavzuning ilmiy jihatdan o‘rganilishi nafaqat sport sohasi, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va yoshlarga oid davlat siyosati nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega.

**Adabiyot tahlili.** Zamonaviy futbol nafaqat sport turi, balki yoshlarni tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy faollikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu bo‘limda futbolning yoshlarni hayotidagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Axmedov (2024) o‘z maqolasida yosh futbolchilarni jismoniy tayyorlashda o‘quv mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi. U sport mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlardan foydalanish va jismoniy sifatlarni rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Sharipov (2024) zamonaviy futbolning yoshlarni ongini shakllantirishdagi rolini o‘rganib, futbolning ijtimoiy ta’sirini tahlil qiladi. U futbol tizimi yaxshi rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni jinoyatchiligi va giyohvand moddalarni iste’mol qilishda sezilarli pasayish kuzatilganini ta’kidlaydi. Masalan, Braziliyada kam ta’minlangan hududlarda futbol maktabalarini rivojlantirishga qaratilgan hukumat dasturlari jinoyatlar darajasini 30%ga kamaytirishga yordam bergan. Karimov, Atajanov va Yusufboyev (2023) o‘z maqolalarida bugungi zamonaviy futbol o‘yinidagi taktik harakatlarning mazmun mohiyatini o‘rganib, zarur xulosalar keltirgan. Ular futbol o‘yinida samarali taktika va texnik harakatlarning ahamiyatini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘sishma chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-115-son qarori yoshlarni futbolini rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjatdir. Ushbu qarorda futbol akademiyalarini rivojlantirish, malakali mutaxassislarni jalb qilish va yosh

futbolchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Futbolda jismoniy sifatlarning ahamiyati katta. Egiluvchanlik, maksimal tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar futbolchilarini o'yinda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Ushbu sifatlarni rivojlantirish yosh futbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy futbol yoshlari hayotida nafaqat sport sifatida, balki tarbiya, ijtimoiylashuv, jismoniy va ma'naviy rivojlanish vositasi sifatida ham muhim o'rinni tutadi. Shuningdek, futbolning yoshlari ongini shakllantirishdagi roli, taktik tizimlarning ahamiyati va jismoniy sifatlarning rivojlanishi kabi masalalar tadqiqotlar orqali o'rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot zamonaviy futbolning yoshlari hayotiga bo'lgan ta'sirini o'rganish, uning ijtimoiyi, jismoniy va ma'naviy jihatdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida mavjud ilmiy maqolalar, statistika ma'lumotlari, hukumat qarorlari va xalqaro futbol tashkilotlari hisobotlari tahlil qilindi. Bu orqali futbolning yoshlari salomatligi, tarbiyasi va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlashtirildi. Tadqiqot doirasida O'zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan futbol maktablaridagi 14–18 yosh oralig'idagi 100 nafar o'quvchi o'rtaida so'rovnama o'tkazildi. So'rovnomalar yoshlarning futbolga bo'lgan qiziqishi, undagi motivatsiya, jismoniy faoliyat darajasi va ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishiga oid savollarni o'z ichiga oldi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida murabbiylar bilan suhbatlar o'tkazilib, yosh futbolchilarning jismoniy va ruhiy holati, ularning intizom darajasi va o'zaro muloqot qobiliyatlari kuzatildi. Bu yondashuv orqali futbol treninglarining yoshlari hayotiga ijobiy ta'siri amaliy jihatdan baholandi. Yoshlar ishtirokidagi futbol faoliyatining ta'siri boshqa sport turlari bilan solishtirilib tahlil qilindi. Bu usul orqali futbolning boshqa sport turlariga nisbatan qanday afzalliklari borligi aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish agentligi, FIFA, va boshqa manbalardan olingan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Bu ma'lumotlar yoshlari o'rtaida futbol bilan shug'ullanish darajasi, sport inshootlarining mavjudligi va futbol orqali erishilgan natijalarni o'z ichiga oladi.

**Tadqiqot muhokamasi.** Tadqiqot natijalari zamonaviy futbolning yoshlari hayotida qator muhim ijtimoiy, jismoniy va ma'naviy funksiyalarni bajarishini ko'rsatdi. So'rovnama, amaliy kuzatuvlari va adabiy manbalar tahliliga asoslanib, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. So'rovnomada qatnashgan yoshlarning aksariyati (85%) futbol bilan

shug‘ullanish natijasida o‘zlarining sog‘lomroq va chiniqqanligini his qilganini bildirgan. Bu esa futbolning jismoniy faollikni oshirish, yurak-qon tomir tizimi va umumiy jismoniy salomatlikni yaxshilashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Ayniqsa, harakatsiz hayot tarzining keng tarqalgan davrida futbol yoshlarni faol hayotga qaytaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Futbol o‘yinlari orqali yoshlar o‘zaro muloqot qilish, jamoada ishlash, hurmat, birdamlik va mas’uliyat kabi ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘layotgani kuzatildi. Murabbiylar bilan olib borilgan suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, futbol jamoalarida qatnashayotgan yoshlar o‘rtasida hamjihatlik va do‘stona muhit shakllanadi, bu esa ularning ijtimoiy hayotda faolroq bo‘lishiga olib keladi. Futbol mashg‘ulotlari yoshlarni intizomli bo‘lish, vaqt ni to‘g‘ri taqsimlash, qat’iyatlilik va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda qatnashgan murabbiylar yosh futbolchilarining o‘qishga va boshqa hayotiy faoliyatlarga nisbatan ham mas’uliyatliroq bo‘lib borayotganini ta’kidlashdi.

Futbol yoshlar uchun nafaqat sog‘lom turmush, balki kelajak kasbi va daromad manbai sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Rivojlangan sport tizimi va akademiyalarning mavjudligi yosh futbolchilarga professional sportchi bo‘lish imkonini beradi. Bu esa futbolning yoshlar motivatsiyasini oshiruvchi omil sifatidagi rolini kuchaytiradi. Tadqiqot davomida maktab va mahalla darajasida futbolni ommalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj yaqqol ko‘zga tashlandi. Aksariyat ishtirokchilar futbol mashg‘ulotlarining ta’lim tizimi bilan bog‘lanishini qo‘llab-quvvatlagan. Bu esa futbolning nafaqat sport, balki tarbiya vositasi sifatida ham dolzarbligini ko‘rsatadi. Zamonaviy futbol yoshlar orasida sog‘lom hayot tarzini shakllantirish, ijtimoiy va ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek, kelajakdagi professional yo‘nalishlarini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari bu boradagi tizimli yondashuv va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tiborning dolzarbligini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar, so‘rovnomalar va amaliy kuzatuvalar zamonaviy futbolning yoshlar hayotida tutgan o‘rni nihoyatda muhim ekanini ko‘rsatdi. Futbol yoshlar salomatligini mustahkamlash, ularni jismoniy faollikka jalb etish, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, intizomli va mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, futbol yoshlarning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy va psixologik rivojanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jamoaviy sport sifatida futbol orqali yoshlar o‘zaro hurmat, birdamlik, murosaga kelish kabi hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, futbol kelajak kasbini belgilash va professional sportchi sifatida shakllanish uchun ham katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shu sababli, maktablar, futbol akademiyalari va mahalla sport inshootlarida

futbolni yanada rivojlantirish, yoshlar orasida ommalashtirish va tizimli qo'llab-quvvatlash davlat siyosati doirasida ustuvor yo'nalihlardan biri bo'lishi zarur. Bu orqali sog'lom, faol va ijtimoiy jihatdan barqaror yosh avlodni tarbiyalashga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Ахмедов, Ш. (2024). Ёш футболчиларни жисмоний тайёрлаш усуллари. *Спорт фанлари журнали*, 12(1), 45-53. <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/584>
2. Шарипов, О. (2024). Замонавий футбол ва ёшлар тарбияси: ижтимоий аҳамият. *Ижтимоий фанлар маҳали*, 8(3), 78-85. <https://www.grand-strategiya.uz/2025/02/futbol-ozbekiston-yumshoq-kuchining.html>
3. Каримов, И., Атажанов, Б., ва Юсуфбоев, Н. (2023). Замонавий футболда тактик тизимлар ва уларнинг мазмуни. *Физкультура ва спорт*, 15(4), 102-110. <https://erus.uz/index.php/er/article/view/1341>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. (2023). Оммавий ва профессионал футболни ривожлантириш чоралари. *ЎзА расмий сайти*. [https://uga.uz/oz/posts/ommaviy-va-professional-futbolni-har-tomonlama-rivojlantirishning-qoshimcha-chora-tadbirlari-togrisida\\_471096](https://uga.uz/oz/posts/ommaviy-va-professional-futbolni-har-tomonlama-rivojlantirishning-qoshimcha-chora-tadbirlari-togrisida_471096)
5. Мирзаев, Д. (2023). Футболда жисмоний сифатларнинг аҳамияти. *Спорт ва саломатлик*, 9(2), 34-40.